



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 132 sahifa,  
1-oktyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
<b>Tursunova Ozoda Abdullayevna</b>	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
<b>Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich</b>	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI .....	18
<b>Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li</b>	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
<b>Sobitova Shaxnoza Shokir qizi</b>	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI .....	27
<b>Tulyaganova G.O.</b>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
<b>Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna</b>	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI .....	36
<b>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</b>	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI .....	41
<b>Azimov.J.S., Melibayeva R.N.</b>	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
<b>Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi</b>	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	47
<b>Kurbonov Munis Umirbekovich</b>	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
<b>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI .....	56
<b>Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li</b>	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI .....	60
<b>Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
<b>Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi</b>	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI .....	68
<b>Shodiyeva Rayhon Saydullayevna</b>	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI .....	75
<b>Mirabdullayeva Sh. A.</b>	
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
<b>Raxmatova Zamira Baxtiyorovna</b>	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
<b>Шомуродова Махфуза Аслитдиновна</b>	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
<b>Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna</b>	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
<b>Narziqulova Gulrux Axrorovna</b>	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI .....	98
<b>Mahmudov Abdurasul</b>	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI .....	102
<b>Karimov Sherzod Abdurasulovich</b>	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI .....	106
<b>Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li</b>	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI .....	111
<b>G'afforova Dilfuza Jo'rayevna</b>	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
<b>Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna</b>	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
<b>Mustafayeva Muxlisa</b>	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
<b>Rustamova Manzura Ne'matjanovna</b>	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI .....	126
<b>Tajibayev Shohruh Maqsudovich</b>	

# KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

**Tajibayev Shohruh Maqsudovich**

Buxoro davlat universiteti  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada kommunikativ kompetentlik tushunchasining psixologik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ kompetentlik insonning ijtimoiy munosabatlarda samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida ko'rib chiqilgan bo'lib, u kognitiv, affektiv, bixevioral va motivatsion komponentlardan tashkil topadi. Shuningdek, maqolada kommunikativ kompetentlikning shakllanishida oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar muhiti va shaxsiy psixologik xususiyatlar, shu jumladan emotsional intellektning roli alohida ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetentlik, muloqot, kognitiv komponent, affektiv komponent, bixevioral komponent, motivatsiya, ijtimoiy faollik, emotsional intellekt, shaxsiy rivojlanish.

**Abstract:** The article analyzes the psychological foundations of the concept of communicative competence. Communicative competence is considered as an individual's ability to communicate effectively in social interactions and consists of cognitive, affective, behavioral, and motivational components. Furthermore, the article emphasizes the role of family, educational institutions, peer environment, and personal psychological characteristics — including emotional intelligence — in the development of communicative competence.

**Key words:** communicative competence, communication, cognitive component, affective component, behavioral component, motivation, social activity, emotional intelligence, personal development.

**Аннотация:** В статье проанализированы психологические основы понятия коммуникативной компетентности. Коммуникативная компетентность рассматривается как способность личности эффективно взаимодействовать в социальных отношениях и включает когнитивный, аффективный, бихевиоральный и мотивационный компоненты. Кроме того, в статье особо подчёркивается роль семьи, образовательного учреждения, среды сверстников и индивидуально-психологических особенностей, включая эмоциональный интеллект, в формировании коммуникативной компетентности.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, общение, когнитивный компонент, аффективный компонент, бихевиоральный компонент, мотивация, социальная активность, эмоциональный интеллект, личностное развитие.

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida inson faoliyatida samarali muloqot qilish qobiliyati - kommunikativ kompetentlik - muhim psixologik sifati sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkablashuvi sharoitida insondan nafaqat kasbiy bilim va malaka, balki samarali muloqot qilish, tinglay olish, fikrni aniq ifoda etish, hamdardlik va boshqalar bilan munosabatni konstruktiv ravishda qurish qobiliyati ham talab etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ kompetentlik - bu shaxsning ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyatli munosabat o'rnata olish, boshqalarni tinglash va tushunish, o'z fikrini adekvat ravishda ifoda etish, hamkorlik va o'zaro anglashuvga erishish qobiliyatidir. Psixologik nuqtai nazardan u shaxsning ichki dunyosi, emotsional holati, axloqiy qiymatlari va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun bu fenomenni o'rganish nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, inson muloqot jarayonida nafaqat axborot almashadi, balki shaxsiy ehtiyojlarini ifoda etadi, ijtimoiy rollarni amalga oshiradi va o'z-o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ kompetentlik - bu faqatgina nutqiy qobiliyat yoki lingvistik bilim emas, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik qobiliyatlar majmuasidir. Kommunikativ kompetentlik muammosi ilmiy adabiyotlarda turli fanlararo yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Psixologiyada u shaxsning individual va guruhviy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladigan qobiliyat sifatida ko'riladi (A.A. Leontev, S.L. Rubinshteyn, B.F. Lomov va boshqalar).



Lingvistikada bu atama birinchi marta D. Xayms tomonidan “communicative competence” sifatida ishlatilib, insonning til qoidalarini bilish bilan bir qatorda, ulardan ijtimoiy sharoitga mos ravishda foydalana olish qobiliyatini anglatgan. Keyinchalik M. Kanal va M. Sveyn bu nazariyani rivojlantirib, kommunikativ kompetentlikni to'rt asosiy komponentdan tashkil topgan tizim sifatida tavsiflagan: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. Zamonaviy psixologiyada bu tushuncha kengaytirilib, shaxsning muloqot jarayonidagi kognitiv, affektiv va bixevioral mexanizmlarini qamrab oladigan tizim sifatida talqin qilinadi. Ya'ni, shaxs nafaqat muloqot qoidalarini bilishi, balki uning mazmunini anglashi, hissiy munosabat bildirishi va amalda samarali muloqot strategiyalarini qo'llay olishi lozim. Kommunikativ kompetentlikning ahamiyati ayniqsa ta'lim tizimi, rahbarlik, psixoterapiya, tibbiyot va xizmat ko'rsatish sohalarida kattadir. Bu sohalarda shaxsning muvaffaqiyati uning kasbiy bilimidan ko'ra ko'proq muloqot madaniyati, empatiyasi va ijtimoiy qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham kommunikativ kompetentlikni shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim psixologiyasi, balki shaxs rivojlanishi psixologiyasi uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - kommunikativ kompetentlik tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, uning psixologik mazmuni va tuzilish komponentlarini tahlil qilishdir.

“Kommunikatsiya” atamasi lotincha *communicare* - “ulanmoq”, “bo'lishmoq”, “ortaqlashmoq” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonlar o'rtasida axborot, g'oya, his-tuyg'u va munosabatlarni o'zaro almashish jarayonini anglatadi. Demak, kommunikatsiya faqat axborot etkazish emas, balki ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, tajriba va qadriyatlar bilan bo'lishish jarayoni hamdir. Psixologiya nuqtai nazaridan, muloqot - bu insonning boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi, o'zaro ta'sir va anglashuv jarayonidir.

Inson faoliyatining barcha turlari muloqotsiz amalga oshmaydi. Shaxs o'z fikrini ifoda etish, his-tuyg'ularini bayon qilish, boshqalarni anglash va jamoadagi munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun ham psixologiyada “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi shaxsning rivojlanish darajasini, uning ijtimoiy faolligini va shaxsiy samaradorligini belgilaydigan muhim mezonlardan biri sifatida qaraladi.

“Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda bir nechta fan sohalari - lingvistika, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya doirasida izohlangan. Birinchi bor bu atama 1972-yilda amerikalik tilshunos Dell Xayms tomonidan “communicative competence” sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. U til bilimidan tashqari, ijtimoiy kontekstda to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini ham muhim deb hisoblagan. Xayms fikricha, insonning muloqotda muvaffaqiyatga erishishi uning grammatik qoidalarini bilishi bilan emas, balki ulardan ijtimoiy sharoitga mos tarzda foydalana olishi bilan belgilanadi. Keyinchalik M. Kanal va M. Sveyn ushbu nazariyani rivojlantirib, kommunikativ kompetentlikni to'rt asosiy komponentdan tashkil topgan tizim sifatida izohlagan:

1. Lingvistik kompetensiya - til qoidalarini, lug'at boyligini va grammatik tuzilishlarni bilish;
2. Sotsiolingvistik kompetensiya - ijtimoiy vaziyatga mos til vositalarini tanlay olish;
3. Diskursiv kompetensiya - nutqni mantiqan bog'langan va yaxlit shaklda tuzish qobiliyati;
4. Strategik kompetensiya - muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari.

Psixologiya fanining nuqtai nazaridan esa, kommunikativ kompetentlik faqat til yoki muloqot texnikasi emas, balki shaxsning ichki psixologik holati, ehtiyojlari, empatiyasi va ijtimoiy faolligi bilan bog'liq integral xususiyatdir. Bu tushuncha shaxsning individual-psixologik sifatleri, kognitiv qobiliyatlari va affektiv reaksiyalarining uyg'unligida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kommunikativ kompetentlik muammosini o'rganishda qator olimlar muhim nazariy hissa qo'shgan:

- L.S. Vygotskiy muloqotni inson ongining shakllanishida asosiy ijtimoiy omil deb hisoblagan. Uning fikricha, har bir psixik funksiya avvalo ijtimoiy munosabatlarda paydo bo'ladi va keyin shaxsiy faoliyat darajasiga ko'tariladi.

- A.N. Leontev muloqotni inson faoliyatining uzviy qismi sifatida izohlab, har qanday muloqotning ortida shaxsning ehtiyoji va motivatsiyasi yotadi, deb ta'kidlagan.

- S.L. Rubinshteyn esa muloqotda inson “sub'ekt-sub'ekt” munosabatini amalga oshiradi, ya'ni har ikki tomon faol sub'ekt sifatida ishtirok etadi, degan g'oyani ilgari surgan.

- B.F. Lomov kommunikatsiyani jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning asosiy mexanizmi sifatida ko'rib, uni shaxsning ijtimoiy adaptatsiya vositasi deb ta'riflagan.

Bu nazariy qarashlardan ko'rinib turibdiki, kommunikativ kompetentlik - bu insonning ijtimoiy muhitda faol muloqot qilish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va shaxsiy sifatning birligi hisoblanadi. U faqat nutq faoliyatini emas, balki tinglash, his etish, javob berish va munosabatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Shuningdek kommunikativ kompetentlik shaxsning quyidagi psixologik xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi:

- Empatiya - boshqalarning his-tuyg'ularini his etish va ularga nisbatan hamdardlik bildirish qobiliyati;
- Refleksiya - muloqot jarayonida o'z xatti-harakatini anglash va boshqalar nuqta nazarini hisobga olish;
- Ijtimoiy moslashuvchanlik - turli vaziyatlarda muloqot uslubini o'zgartira olish;
- Emotsional barqarorlik - muloqotdagi stress va nizolarni boshqara olish qobiliyati;
- Motivatsiya - muloqotga intilish va ijtimoiy faollikni ta'minlovchi ichki turtki.

Bu jihatlar kommunikativ kompetentlikni shaxsning umumiy psixologik rivojlanish darajasi bilan bog'laydi. Masalan, empatiyasi past, yoki refleksiya qobiliyati zaif inson boshqalar bilan konstruktiv munosabat o'rnata olmaydi. Shuning uchun kommunikativ kompetentlik shaxsning ijtimoiy intellekt darajasini ifoda etuvchi ko'rsatkich sifatida ham baholanadi. Psixologik amaliyotda kommunikativ kompetentlik shaxsning kasbiy va shaxsiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, pedagog, psixolog, menejer, shifokor yoki xizmat ko'rsatuvchi xodim faoliyatida muloqot madaniyati va tinglay olish qobiliyati muvaffaqiyatning garovidir.

Yuqori kommunikativ kompetentlikka ega shaxs:

- turli ijtimoiy guruhlar bilan oson munosabat o'rnata oladi;
- nizoli vaziyatlarda konstruktiv yo'l topadi;
- muloqot orqali boshqalarni rag'batlantira oladi;
- jamoada ijobiy psixologik muhit yaratadi.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetentlik shaxsning emotsional holatiga, o'z-o'zini baholashiga va ijtimoiy moslashuv darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikning mohiyati - insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida samarali muloqot qilish qobiliyati bo'lib, u bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy psixologik sifatlarning uyg'un tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat insonning nafaqat axborot almashish, balki boshqalarni tinglash, tushunish va his etish salohiyatini ham qamrab oladi. Kommunikativ kompetentlikning asosida kognitiv (bilish), affektiv (hissiy) va bixevioral (amaliy) mexanizmlar yotadi. Ushbu mexanizmlarning o'zaro bog'liq faoliyati natijasida shaxs muloqot jarayonida samaradorlikka, ya'ni shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ kompetentlikning tuzilishi murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u faqat muloqot ko'nikmalari bilan cheklanib qolmaydi. U shaxsning ichki psixologik holati, emotsional barqarorligi, boshqalarga nisbatan munosabati va muloqotga bo'lgan motivatsiyasini ham qamrab oladi. Demak, kommunikativ kompetentlik - bu bilim, his-tuyg'u, xulq-atvor va motivatsiyaning bir butun tizimi bo'lib, ularning uyg'unligi shaxsning ijtimoiy moslashuvi va muloqotdagi samaradorligini belgilaydi. Shu bois olimlar uning tuzilishiga nisbatan turli nazariy modellarni ilgari surganlar. Biroq umumiy holda ko'pchilik tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlikni bir necha o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida ko'radi.

1. Kognitiv komponent: bu komponent shaxsning muloqot jarayoni haqidagi bilimlari, kommunikatsiya qonun-qoidalarini anglash va axborotni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini ifodalaydi. Inson boshqalarning so'zlari, mimikasi, ishoralari orqali berilayotgan ma'noni to'g'ri tushunish va tahlil qilish uchun kognitiv bilimlar tizimiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, kognitiv kompetensiya insonning o'z muloqot uslubini vaziyatga mos ravishda tanlay olish qobiliyatini ham qamrab oladi. Psixologiyada bu komponent "interpersonal idrok" va "perseptiv qobiliyatlar" tushunchalari bilan bog'lanadi. Masalan, boshqalarning kayfiyatini, niyatini, yoki munosabatini his qilish, ularning so'z ortidagi ma'noni anglash kognitiv kompetentlikning muhim belgilaridir.

2. Affektiv komponent: affektiv yoki hissiy komponent shaxsning boshqalarga nisbatan emotsional munosabati, his-tuyg'ularni anglay olish va boshqara bilish qobiliyatini qamrab oladi. Bu - hamdardlik (empatiya), mehr-oqibat, muloqotda hissiy barqarorlik kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Samarali muloqotda inson nafaqat o'z fikrini bildirishi, balki boshqalarning his-tuyg'usini tushunishi ham muhimdir. Masalan, psixolog yoki pedagog uchun muloqot jarayonida mijozning yoki talabaning ichki holatini his etish va unga mos ravishda munosabat bildirish — kasbiy kommunikativ kompetentlikning asosiy qismi hisoblanadi.

3. Bixevioral (amaliy) komponent: bu komponent shaxsning muloqot jarayonidagi amaliy ko'nikma va strategiyalarini ifoda etadi. Ularga tinglay olish, savol berish, fikrni aniq va to'g'ri bayon etish, tanqidni to'g'ri qabul qilish, konfliktni konstruktiv hal etish kabi ko'nikmalar kiradi.

Bixevioral komponent insonning muloqotdagi real xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Masalan, ish joyidagi muloqotda yoki oilaviy munosabatlarda insonning o'zini tutishi, javob reaksiyalari va so'zlashuv uslubi uning amaliy kommunikativ kompetentligidan dalolat beradi.

4. Motivatsion komponent: motivatsion komponent shaxsning muloqotga bo'lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va ijtimoiy faolligini qamrab oladi. Agar inson boshqalar bilan munosabat o'rnatishga intilishi, ochiq muloqotdan zavq olishi va yangi tajribalarga tayyor bo'lsa, u holda uning kommunikativ motivatsiyasi yuqori darajada deb



baholanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan, motivatsiya muloqotning energetik asosi hisoblanadi. Muloqotga ehtiyojsiz insonda hatto etarli bilim va ko'nikmalar bo'lsa ham, samarali aloqa amalga oshmaydi. Shu bois motivatsion komponent kommunikativ kompetentlikning boshqa qismlarini faollashtiruvchi markaziy omil hisoblanadi.

Shu tariqa, kommunikativ kompetentlik — bu shaxsning bilim, his, ko'nikma va motivatsiya tizimidan iborat bo'lgan psixologik integral tuzilmasi bo'lib, u insonning samarali muloqotga tayyorligini va ijtimoiy muhitga moslasha olish qobiliyatini belgilaydi. Bu sifat inson shaxsiyatining rivojlanishida muhim o'rin tutadi, chunki muloqot orqali u jamiyatdagi o'rnini aniqlaydi, boshqalar bilan munosabat o'rnatadi va tajriba orqali o'zini takomillashtiradi.

Kommunikativ kompetentlik tug'ma holda mavjud bo'lmay, balki ijtimoiy hayot jarayonida, ya'ni amaliy tajriba, ta'lim tizimi va faol muloqot orqali shakllanadi. Insonning muloqot madaniyati va kompetentlik darajasi uning tarbiyasi, atrof-muhiti, shaxsiy xususiyatlari hamda ijtimoiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Demak, bu qobiliyat rivojlanishi uchun ijtimoiy va psixologik sharoitlar tizimli ravishda ta'minlanishi zarur. Uning rivojlanishi uzoq davom etadigan, tizimli ravishda amalga oshadigan psixologik jarayondir. Insonning muloqotdagi samaradorligi uning hayot davomida to'plagan ijtimoiy va shaxsiy tajribasiga bog'liq.

Birinchi navbatda, kommunikativ kompetentlik shakllanishida oila muhiti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolalik chog'ida ota-ona, aka-uka va boshqa yaqinlar bilan bo'ladigan muloqot insonda ilk kommunikativ tajriba va muloqot qoidalarini shakllantiradi. Agar oilada ochiq muloqot, o'zaro hurmat, his-tuyg'ularni erkin ifoda etish muhiti mavjud bo'lsa, bu bolada ijtimoiy ochiqlik va ishonch hissini kuchaytiradi. Aks holda, agar oilada qo'pol muomala, tanqid yoki sukut madaniyati hukm suradigan bo'lsa, bu shaxsning kelgusidagi muloqot qobiliyatini cheklab qo'yishi mumkin. Shuning uchun oilaviy muloqot madaniyati kommunikativ kompetentlik rivojlanishining ilk va eng muhim sharti hisoblanadi.

Ikkinchi muhim omil - ta'lim muassasasidagi psixologik muhit. Maktab yoki oliy ta'lim muassasasida pedagog bilan talabalar, hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar shaxsning muloqot malakasini shakllantiradi. Pedagogik muloqot faqat axborot berish vositasi emas, balki shaxslararo munosabatlarning rivojlanish maydonidir. Agar ta'lim muhitida ochiqlik, hamkorlik, fikr almashish va o'zaro hurmat tamoyillari ustuvor bo'lsa, talabalarda erkin fikrlash, boshqalarni tinglash va o'z fikrini himoya qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bu esa kommunikativ kompetentlikning kognitiv va bixevioral komponentlarini mustahkamlaydi.

Yoshlar va o'quvchilar uchun tengdoshlar bilan muloqot muhim ijtimoiy maktab hisoblanadi. Bu jarayonda inson o'z fikrini bildirish, kelishmovchiliklarni hal etish, guruhdagi rolini anglashni o'rganadi. Tengdoshlar muhitidagi ijobiy tajriba - yaqin do'stlik, hamkorlik, qo'llab-quvvatlash - muloqotga ishonchni oshiradi. Aksincha, konfliktli yoki raqobatli muhit shaxsning muloqotga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi, ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy muhitda sog'lom munosabatlarni qo'llab-quvvatlash kommunikativ kompetentlik rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Kommunikativ kompetentlikning rivojlanishida shaxsning individual psixologik xususiyatlari ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, ekstraversiya darajasi, empatiya qobiliyati, emotsional barqarorlik, ochiqlik va boshqalar insonning muloqotdagi faolligini belgilaydi. Ekstravert shaxslar odatda muloqotda faol, tashabbuskor bo'lishsa, introvert tipdagi odamlar ehtiyotkor va to'siqli munosabatni namoyon etishadi. Biroq bu holat tug'ma cheklov emas - to'g'ri psixologik mashg'ulotlar va ijtimoiy tajriba orqali har qanday shaxs o'z muloqot qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

Oxirgi yillarda psixologiyada "emotsional intellekt" tushunchasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu - insonning o'z his-tuyg'ularini anglay olishi, ularni boshqarishi va boshqalarning emotsional holatini tushunishi qobiliyatidir. Yuqori emotsional intellekt kommunikativ kompetentlikning affektiv va bixevioral komponentlarini samarali rivojlantiradi, chunki u muloqotdagi hissiy moslashuv va hamdardlikni ta'minlaydi.

Psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar - kommunikativ treninglar, rolev o'yinlar, guruhiy muammo echish mashqlari juda samarali hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar ishtirokchilarga muloqotdagi xatti-harakatlarini anglash, o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash va konstruktiv munosabat qurishni o'rgatadi.

Demak, kommunikativ kompetentlikni shakllantirish uchun faqat nazariy bilimlar etarli emas. Bu jarayon ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi, shaxsiy psixologik sifatlar va emotsional rivojlanish kabi omillarning o'zaro ta'sirida amalga oshadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi va muloqotga qiziqishi yuqori bo'lsa, uning kommunikativ kompetentligi ham shuncha yuqori darajada namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qisqacha aytganda, kommunikativ kompetentlik — shaxsning jamiyatda samarali muloqot qilish, ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va ruhiy jihatdan barqaror aloqalar o'rnatish qobiliyatidir. Psixologiya nuqtai nazaridan u faqat til bilimlarini emas, balki emotsional, ijtimoiy va ma'naviy omillarni ham qamrab oladi.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish insonning shaxsiy o'sishi, jamoadagi faolligi va kasbiy samaradorligi uchun muhim shartdir. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonida ushbu kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik mexanizmlarni chuqur o'rganish zamonaviy ilmiy va amaliy vazifa sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. — М.: Вес мир, 2000. — Т.1. — 520 б.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. — М.: Аспект Пресс, 2001. — 376 б.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-селевая основа компетентностного подхода в образовании. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — 38 б.
4. Савинков А.И. Психология общения и межличностных отношений. — М.: Академия, 2010. — 240 б.
5. Sharipova M.Q. Psixologik kompetentlik va shaxs rivoji. — Toshkent: Fan, 2018. — 156 b.
6. To'xtayeva G.N. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2020. — 210 b.
7. Abdullaeva N. Ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari. — Toshkent: TDPU, 2022. — 128 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.